

# Termiz shahar “Amu sohillari” mahalla fuqarolar yig'inida sayyor uchrashuv bo'lib o'tdi



Amu sohillari mahalla fuqarolar yig'inida sayyor uchrashuvda xalq deputatlari shahar Kengashi deputati F.Abjalov ishtirokida bo'lib o'tdi. Deputat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning "Mahalla yettiligi" bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 4-apreldagi KQ-706-IV-sonli qarori hamda xotin~qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasining 2024-yil 6-aprel kunidagi 10-sonli bayonnomasi mazmun-mohiyatini batafsil tushuntirib o'tdi.

Uchrashuv davomida hududda mavjud muammolarga hamda fuqarolar tomonidan berilgan taklif va muammolar yechimi yuzasidan rejalar tuzilib olindi. Fuqarolar murojaatlari yuzasidan tegishli tashkilotlarga deputatlik so'rovlari yuborildi.